



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT  
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,  
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga  
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM  
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

**Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami**

**2023-yil 28-noyabr**

**TOSHKENT-2023**

UDK 04  
KBK 93  
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

**Mas’ul muharrir:**

**Xudoyev G‘anijon** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Tahrir kengashi a‘zolari:**

**Turg‘unova Nasiba** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Yakubov Zohidjon** – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

**Xudoyqulova Nilufar** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

**To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.**

их полное влияние, происходит на основе внутреннего родства природы этих двух видов искусства» [3. с. 187].

Среди романсов Бурханова выделяются также: «Келса ногоҳ...» («Если бы пришла...») (1974) на слова Камилова, «Нега тарк этдинг» («Зачем покинула меня») (1989) на стихи Фитрата, «Топмайин ёрни» (1991) на стихи А.Чулпана, «Хўб дедам» (1994) на рубаи Лахути, «Делам ва ишки гул», «Юрагим гул ишкида» на стихи Хафиза и Лахути. Эти романсы представляют собой различные эстетические концепции, музыкально-художественное мышление композитора, отмеченные современным видением узбекского романса.

Таким образом, камерно-вокальная лирика Бурханова представляет собой претворение национальных традиций и синтез современного языка. Обращение композитора к лирике восточных поэтов как к поэтической основе своих романсов раскрыло имманентные точки соприкосновения с собственной художественной индивидуальностью. В поэтических строках, Бурханов нашел новые грани жанра и романса и формы, творческого его переосмысления. Современный музыкальный язык, поиск выразительных средств, претворение национальных традиций многообразно раскрылись в романсах мастера узбекского камерно-вокальной лирики.

#### Список используемой литературы

1. Насырова Ч.Р. Новые произведения М.Бурханова // Узбекская музыка на современном этапе. – Т.: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1977-С.105-122.
2. Янов-Яновская Н.С. Муталь Бурханов. Время, жизнь, творчество. (Монография). – Т., 1999. – 198 с.
3. Каримова З.Г. Навои в музыке // О музыке. – М., 1980 – С. 185-220

## NAVO SOZ AYLASANG...

**Zumriniso KOZIMOVA,**

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti  
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi.*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Alisher Navoiyning XIV–XV asr o‘zbek musiqa madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasi, jumladan mohir sozanda, bastakor, ustoz-murabbiy bo‘lish bilan birga, bu boradagi chuqur bilim sohibi ekanligi tahlilga tortiladi. Navoiyning o‘z asarlari hamda zamondoshlari asarlarida keltirilgan ma’lumotlar o‘rganiladi.*

***Kalit so‘zlar:** mutrib, navo, soz, mug‘anniy, kuy, ohang, advor, musiqiy ilmi, nag‘ma, qo‘shiq.*

O‘z davrida Alisher Navoiyning Hirot adabiy muhiti, ilm-fani, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti taraqqoyotida o‘rni beqiyos bo‘lganligini yaxshi bilamiz. Navoiy qomusiy olim sifatida ko‘plab fanlar qatorida san’at va madaniyat, jumladan musiqashunoslik ilmiga ham o‘z hissasini qo‘shgan. Eng avvalo, Navoiy ona tomonidan bek bobosining Abu Said changi taxallusi bilan mashhurligi, tog‘alari Mir Said Qobuliy va Muhammad Ali G‘aribiylarning ham musiqachilar

bo‘lganligiga e‘tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, shoirda bu qobiliyat aslida “tug‘ma” ekanligi ham ayni haqiqatdir. Navoiy musiqa ilmidan yaxshi xabardor olim, bastakor va mohir sozanda bo‘lgan, yosh ijodkorlarga bu borada ham ustoz-murabbiylik hamda homiylik qilgan.

Bobur “Boburnoma” asarida Navoiyning “...yana musiqada yaxshi nimalar bog‘labtur. Yaxshi naqsh(ashula)lari va yaxshi peshrav(kuy)lari bordur” [1, 233-b] - desa, Xondamirning “Xulosat ul-axbor” asaridan qonun va udni mahorat bilan chalganligini bilib olamiz. Har ikkala ijodkor ham Navoiyning naqsh va peshravlari borligini aytadi, ammo ularning nomini keltirmaydi. Ismoil Bekjon o‘zining “Ma‘rifat” gazetasiga bergan maqolasida Mutribiyning “Nusxayi zeboyi Jahongir” asariga tayanib, Navoiyning “Husayniy” ohangida “turk zarb” usuli bilan Husayn Boyqaroga bag‘ishlab naqsh yaratganligini keltiradi. Abdurauf Fitrat “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” kitobida “Qari Navo” yoki “Qari Navoiy” kuyining Navoiy ijodiga mansubligini yozadi: “Bu kuyning juda eski bir kuy ekani har tomonda so‘ylanib turur. Eshitganimizga ko‘ra, Farg‘onada ham “Qari Navoiy” ismli eski bir kuy bor. Toshkent musiqachilari bu kuyni “Qari Navo” derlar. Biroq bu ism yanglishdir. Alar shul “Qari Navoiy” ismini buzib olg‘anlar. Buxoroning eski musiqashunoslarining orasida bu kuy Navoiy asari bo‘lg‘oni so‘ylanadir. Mana shu ma‘lumotlardan so‘ng “Qari Navoiy” kuyining Alisher Navoiy asari bo‘lg‘ani ehtimoli kuchlanib qoladir” [2, 42-b].

Xondamirning “Xulosat ul-axbor” asarida o‘qiymiz: “Oliyhzrat amir Alisher musiqa ilmida ham shu qadar mahorat hosil qilgan edilarki, agar Muallimi soniy Abu Nasr Forobiy hayot bo‘lganlarida Navoiyga shogirdlik sirg‘asini qulog‘iga taqib olardi. U **qonun** va **udda** zo‘r ta‘lim olgandilar. Binobarin, sozanda ahlining ko‘pchiligi hamisha oliyhzratning mulozamatida bo‘ladilar. Hofiz qozoq yoshi ulg‘ayib, oqu qorani ajratadigan bo‘lib qolganda oliyhzrat amir Alisher xizmatiga kirdi va uning diqqat-e‘tibori orqasida qonun chalishda tengi yo‘q kishiga aylandi... Ustod Shohquli ham yoshligida amir Alisher xizmatida ud va boshqa musiqa asboblarini to‘la egallab oldi va bir kuy tasnif etdiki, peshravi purkordir. Amir Alisher uning tarbiyasiga shu qadar kirishdiki, undan ortig‘ini tasavvur qilib bo‘lmaydi.... Ustod Husayn bolaligidan to yigitligi boshlarigacha amir Alisher ostonasida bo‘lib, ud chalish bilan mashg‘ul va bu fanda to‘la mahorat hosil qildi. Ustod Shayxiy Noiy ham yoshligidan amir Alisher ko‘rsatmasi va istagi bilan nay chalishga mayl bildirdi, shu kunlarda bu fanda unga teng keladigani yo‘qdir” [3, 21-b]. “Boburnoma”da: “Ahli fazl va ahli hunarg‘a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma‘lum emaskim, hargiz paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay. Ustoz Qulhuhammad va Shayxi Noyi va Husayn Udiykim, sozda saromad edilar, bekning tarbiyat va taqviyati bila muncha taraqqiy va shuhrat qildilar” [1, 233-b], deyiladi. Guvohi bo‘lganimizdek, Navoiy qalam ahllari bilan birgalikda san‘atkorlarning ham ustozlari, tarbiyatkunandasi bo‘lgan. U soz chalishda havaskor ijodkor emas, balki mohir sozanda – san‘atkor sifatida shogirdlar yetishtirgan.

Alisher Navoiyni “Xazoyin ul-maoniy”, “Majolis un-nafois”, “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Sab‘ai sayyor”, “Mahbub ul-qulub” kabi qator asarlari orqali san‘atshunos sifatida ham taniymiz. Mazkur asarlarda keltirilgan

ma'lumotlarni quyidagicha tasniflashimiz mumkin: 1. Sozanda va xonandalar haqida keltirilgan ma'lumotlar hamda ular ijodiga berilgan baho. 2. XIV–XV asrda qo'llanishda bo'lgan musiqaga oid atamalar.

“Majolis un-nafois” asarida bir qator she'riyat ahllarining “musiqiy ilmi” ham yuqori ekanligi haqidagi quyidagi fikrlarni ko'rishimiz mumkin:

Muhammad Ali – “G'aribiy” taxallus qilur erdi. Ul ham faqirg'a tag'oyi bo'lur erdi. Mir Said Kobuliyning inisidur. Ko'proq sozlarni yaxshi chalar erdi. Uni va usuli xub erdi. Musiqiy ilmidin ham xabardor erdi [4, 62-b].

Mavlono Solimiy – Iroq mulkinging odamzodalaridindur. Xurosonda fazliyotdin ko'p nima kasb qildi. Avval tahsilg'a mashg'ul bo'ldi. Andin so'ngra she'r va muammo va xatqa ko'shish qildi. Yana sozlardin ud va tanbur ham o'rgandi va musiqiyda ham tasniflar bog'ladi [4, 76-b].

Xoja Kamoliddin Husayn – derlarki, musiqiyda ham daxli bor va ba'zi naqshlarni anga mansub qilurlar [4, 132-b].

Xoja Abdulloh Sadr – Advor va musiqiy ilmida va xutut fanida benazir bo'ldi. Va qonunni ma'lum emaskim, hargiz kishi andoq cholmish bo'lg'ay. Va podshoh xizmatida oliy mansabqa sarfarozi bo'ldi. Ud jumladin biri, sadoratdur [4, 132-b].

Mavlono Sohib Balxiy – bovujudi she'r fanida mahoratlik kishi erdi, advor va musiqiy ilmida komil erdi. O'z g'azallarini o'z amallariga bog'labdurkim, aning fazoyilig'a dalolat qilg'ay. Ul jumladin, “Chahorgoh” amalidirkim, mashhurdur [4, 15-b].

Xoja Yusuf Burhon – jamei ahli turuqning sohib tariyqi erdi va musiqiy ilmin ham yaxshi bilur erdi va faqir musiqiy fanida aning shogirdimen. Ko'proq o'z she'rig'a musiqiy bog'lar erdi. “Isfahon” amalini, bu baytig'a bog'labturkim:

Rasid mavsumi shodi-yu aysh-u tarab,

Agar gado ba murodi dile rasad chi ajab” [4, 46-b].

Mavlono Shayxiy – tabaslikdur. Muddate Iroqqa bordi. Andin kelganda advor va musiqiyg'a ham sohibi vuquf bo'lub keldi [4, 94-b].

Pahlavon Muhammad Go'shtigirkim – ko'b fazoyil bila orostadurkim..., musiqiy va advor ilmida davrining benaziridur [4, 108-b].

Mavlono Binoiy – bag'oyat qobiliyati bor. Avval tahsilg'a mashg'ul bo'ldi, anda ko'p rushdi bor erdi, bot tark qildi. Xatg'a ishq paydo qildi. Oz fursatda obodon bitidi. Andin so'ng ilmi musiqiyg'a mayl ko'rguzdi. Advor ilmi bilan bot o'rganib, xili ishlar tasnif qilib advorda dag'i risola bitidi. Ammo mo'jib va mutasavvirlik'idin el ko'nglig'a maqbul bo'lmadi. Bu sifati salbi uchun faqr tariyqin ixtiyor qildi va riyozatlar ham tortti, chun piri va murshidi yo'q erdi, o'z boshicha qilg'on uchun hech foyda bermadi. El ta'n-u tashniidin Hiriya turolmay Iroqqa bordi [4, 68, 69-b].

E'tiborimizni shoir Binoiyga qaratadigan bo'lsak, uni “Boburnoma”dagi ma'lumotlarda musiqaga mayli paydo bo'lishining sababi ham Navoiy Hazratlari ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, yuqoridagi ma'lumot hamda Zayniddin Vosifiyning “Badoye ul-vaqoye” asariga ko'ra, Navoiy Binoiyning musiqadagi yutuqlarini e'tirof etish bilan bir qatorda kamchiliklarini tanqid ostiga oladi. Bu

borada yaxshi ustoz ko‘rmaganligini, ta’limni oxiriga yetkazmaganligini va natijada muvaffaqiyat qozona olmay, elning ta’na-dashnomiga qolganligini aytadi.

“Mahbub ul-qulub” asarining “Mutrib va mug‘anniylar zikrida” qo‘shiqchi va cholg‘uchilarga: “Ko‘ngil xush ohangdan quvvat oladi. Ruh esa xush ovozdan quvvat oladi. Ovozi yoqimli bo‘lsa, dard ahlining ishq o‘ti alanga oladi, agar malohatli bo‘lsa, hol ahli o‘rtasida qiyomat ko‘tariladi. Har sozanda dardmandroq chalsa, uning nag‘masi dardli yurakka qattiqroq ta’sir qiladi... fahm-farosatli sozandaning ijrosi tosh ko‘ngilni ham eritib yuboradi. O‘zi chalib, o‘zi kuylasa, ko‘ngil mulkiga qo‘zg‘alon soladi” [5, 38-b], deya ta’rif beradi.

Navoiyning ilmiy-ma’rifiy asarlari bilan bir qatorda badiiy asarlarida ham musiqaning inson kamolotidagi o‘rni beqiyos ekanligi ta’rifi yaqqol ko‘rinib turadi. Jumladan, “Xamsa”ning to‘rtinchi dostoni bo‘lmish “Sab’ai sayyor”da: Bahrom haqida: “Bahromning maqsadi doim musiqa va ashula eshitish edi. Uning xizmatida mohir sozanda-yu, bazmlarida jonfizo hofizlar ko‘p edi. U qayerga borsa, sozanda-yu xonandalari ham o‘sha yerda hozir-u nozir edi”-desa, Diloromning chang chalishdagi mahoratini ta’riflab: “u changni qo‘iga olarkan changi jonfizo sado chekadi, o‘zi u ohangga jo‘r bo‘lib navo qiladigan bo‘lsa, eshitguchini adoyi tamom qiladi” [6, 382–383-b], - deydi.

XIV–XV asrda qo‘llanishda bo‘lgan, Navoiy asarlarida keltirilgan musiqaga oid atamalarni ham quyidagicha tasniflaymiz:

**1. Soz nomlari:** ud, qonun, tanbur, g‘ijjak, chang, daf, rubob, nay, nog‘ora, arg‘anun, chag‘ona, sapoyil, qo‘buz, yotug‘an.

**2. Qo‘shiq atamasini bildiruvchi so‘zlar:** ayolg‘u (arab. o‘lan, ashula, kuy, qo‘shiq), alxon (kuy, ohang, navo, qo‘shiq), dasotin (fors. dostonlar; qo‘shiq, nag‘ma), surud (fors. qo‘shiq, ashula), talolo (fors. kuy, ohang, qo‘shiq; qiyqiriq, hayqiriq), o‘lang (turkiy. ashula, o‘lan), qo‘shuq (turkiy), lahn (arab. ashula; navo, ohang), yirla (turkiy. ashula, qo‘shiq aytmoq, kuylamoq), tarona (fors. ashula, kuy, ohang).

**3. Qo‘shiqchi atamasini bildiruvchi so‘zlar:** ayolg‘uvchi (arab. musiqachi, ashulachi), mutrib (arab. qo‘shiqchi, cholg‘uvchi, navozanda), go‘yanda (fors. qissago‘y, qo‘shiqchi), yirlag‘uvchi (turkiy. jirlovchi, kuylovchi), , lahnparдоз (arab+fors. kuylovchi, kuy chaluvchi), navogo‘ (fors. kuychi, ashulachi, mutrib), navozanda (fors. xonanada, sozanda, kuylovchi), navosoz (fors. kuy chaluvchi, kuylovchi; mutrib), nag‘magar (arab. kuy, navo chaluvchi, kuylovchi), nag‘mapardoz (arab+fors. go‘zal, yoqimli kuy kuylovchi, xonanada), nag‘masoz (arab. cholg‘uvchi, kuylovchi, sozanda), tarannumgar (arab+fors. cholg‘uvchi, sozanda, kuylovchi, ashulachi), saroyanda (fors. hofiz, aytuvchi), xonanda (fors. ashulachi, hofiz, xonanda), xunyogar (fors. nola qiluvchi, nolagar; sozanda, xonanda), san‘atgariy (arab. san‘atkor, hunarmandga mansub), xunyogarlig‘ (fors. ashulachilik, xonandalik, sozandalik), san‘atsoz (arab. san‘atkor, mohir usta), san‘atfosh (arab. san‘atkor, mashhur hunarmand).

**4. Kuy hamda qo‘shiq aytish jarayonida ishlatiladigan so‘zlar:** gulxocha, bozgo‘y (fors. qo‘shiqning naqorat qismiga nisbatan qo‘llangan), amal (arab. Kuy, ohang), afg‘on (fors. 1.fig‘on, faryod, nola 2.ovoz, sado, jarang, bong), vazn (arab.

musiqa, kuy, ohang pardasi), soz (fors. jo‘r, ohang, kuy, nag‘ma), go‘yo (fors. so‘zlovchi, ohang), zamzama (fors. mayin ovoz, nag‘ma, jo‘r bo‘lish), ilxon (arab. kuylash, xushovoz kuylar, ovozlar, musiqiy (arab. ohangdor ), navo (fors.) nag‘ma, ohang), nag‘amot (arab. kuylar, navolar, taronalar), nag‘ma (arab. ohang, navo, kuy), ohang (fors. kuy, navo, soz), tarannum (arab. yoqimli sayrash, kuylash), tarannumsaroy (arab+fors. nag‘ma boshlovchi, nag‘ma chiqaruvchi), taronasozlig‘ (fors. kuylash, tarannum etish), tag‘anniy (arab. ashula aytish, kuylash, xonish qilish), xonadalig‘ (fors. hofizlik, ashula aytishlik), savt (arab. ovoz, tovush; kuy, ohang), xushxon (fors. xushohang, xushovoz), xushxonlik (fors. xushovozlik, xushohanglik), zahmapardozlig‘ (arab. kuylovchilik, cholg‘uvchilik) [7].

**5. Kuy nomlari:** “Saydi g‘azol”, “Chahorgoh”, “Isfahon”, “Savt”, “Chorzarb”, “Arg‘ushtik”, “Uluq” kabi.

Shoirning birgina “Navo soz aylasang” g‘azalida tanosub san‘atidan foydalangan holda “mug‘anniy”, “navo”, “soz”, “ud”, “nag‘ma”, “un”, “lahn” kabi musiqiy atamalarni qo‘llaydi:

Ey, mug‘anniy, yor bazmida navo soz aylasang,  
Jon fidong o‘lsun g‘amim sharhidin og‘oz aylasang.  
Udek kuymakligim sharh et lisoni hol ila,  
Nag‘mada udung lisonin sehripardoz aylasang.  
O‘zga olamdin xabar deb bizni turguzdung ne tong,  
Bu risolat birla gar izhori i‘joz aylasang.  
Rozim ar sozing lisonidin ba‘idul fahm esa,  
Anga ruhafzo unungni dog‘i hamroz aylasang.  
Otlanib, boshimni raxshingning ayog‘i ostig‘a,  
Tig‘ birla solg‘udek masti sarandoz aylasang.  
Parda yop roz uzrau doxil bo‘l ushbu bazm aro  
Kim, erur xorij agar beparda pardoz aylasang.  
Chekmading lahne Navoiy ko‘nglun istab, ayb emas,  
Anglab o‘zungni, navo ahlig‘a shahnoz aylasang [8, 261-b].

Bu g‘azal go‘yo Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida sozanda va xonandalarga, kuy va qo‘shiqqa berilgan ta‘rifining she‘riy ifodasiga o‘xshaydi.

Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” dostoniga 4 ta mustazod kiritilgan. Shoirning ta‘kidlashicha, bu janrda she‘r yozish turkiy xalqlar orasida mashhur bo‘lib, bir kuy tanlab olingan va shunga moslab, she‘r yozilgan.

Guvohi bo‘lganimizdek, o‘z davrining mashhur shoirlari, olim-u fozillari, saroy amaldorlari musiqa ilmi bilan shug‘ullangan, musiqani yaxshi tushungan hamda bir yoki bir nechta musiqa asboblarini chala olishgan. Ayniqsa, shoirlar orasida musiqa ilmini puxta o‘zlashtirganlar ko‘p bo‘lgan. Bu kishilardagi estetik zavqni oshirish, ruhiyatni tarbiyalash bilan birgalikda she‘rdagi ohngdorlikni ta‘minlash, vazn talabiga to‘la rioya qilish imkoniyatini yaratgan.

#### **Adabiyotlar:**

1. Bobur. Boburnoma. – T.: Fanlar akademiyasi nashriyoti. 1960.
2. Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T., 1992.
3. Xondamir. Xulosat ul-axbor. – T., 1965.
4. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami.: T.13. Majolis un-nafois. – T.: Fan, 1997.

5. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – T.: Sano-standart, 2018.
6. Navoiy A. Sab' ai sayyor. – T.: G'.G'ulom nashriyoti, 1991.
7. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik. – T.: Fan, 1983. I – IV tom.
8. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami.: T.4. Majolis un-nafois. – T.: Fan, 1989.

## HALIMA NOSIROVANING YORQIN SAN'ATI

**Xamidova M.A.,**

*BuxDPI 1-bosqich magistranti;*

Ilmiy rahbar: **Nurullayev F.G.,**

*BuxDPI Musiqa va tasviriy san'at kafedراسi dotsenti.*

***Annotasiya.** Maqolada O'zbek qo'shiqchiligi va opera san'atiga bebaho hissa qo'shgan san'atkorlardan biri Halima Nosirova haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan. Halima Nosirova o'zbek milliy ashula va qo'shiqlarini betakror ijrochisidir.*

***Kalit so'zlar:** Qo'shiq, ashula, musiqa, balet, teatr, opera, kuy, sozanda, diapazon; tovush xususiyatlari; ijro etish texnikasi, san'at, iste'dod, ovoz.*

***Аннотация.** Статья посвящена одной из великих узбекских артисток, внесших неоценимый вклад в узбекское певчество и оперу Халиме Носировой. Халима Носирова – уникальная исполнительница традиционных национальных песен Узбекистана.*

***Ключевые слова:** Песня, напев, музыка, балет, театр, опера, мелодия, музыкант, диапазон; звуковые характеристики; исполнительская техника, искусство, талант, голос.*

O'zbek qo'shiqchiligi va opera san'atiga bebaho hissa qo'shgan san'atkorlardan biri Halima Nosirovadir. Halima Nosirova ayniqsa o'zbek opera san'atida alohida maktab yaratdi va bu noyob san'at rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Halima Nosirova 1913-yilda Qo'qon yaqinidagi Tog'lik qishlog'ida tavallud topdi. Otasi Muhammadnosir aka kosib bo'lsada, qo'shiq va she'rlardan xabardor bo'lib, yosh Halima qalbida san'atga havas uyg'otdi. Otasining bevaqt vafotidan so'ng qiyin ahvolda qolgan oila onasi Xosiyatxon va opalari Xojar va Oyishalar bilan Qo'qon shahriga ko'chib kelishadi. Yosh Halimani bolalar uyiga topshirishadi. 1929 yilda Toshkentdagi xotin-qizlar bilim yurtiga o'qishga qabul qilinadi. Shu yerda Ali Ardobus rahbarlik qilayotgan badiiy havaskorlik to'garagiga dugonalari Shohida Maxsumova, Nazira Aliyevalar bilan qatnay boshlaydi. Tezda ustozlarning nazariga tushgan Halima Nosirova 1925 yilda bir guruh yosh san'atkorlar bilan Bokudagi teatr bilim yurtiga o'qishga yuboriladi. Ish faoliyatini hozirgi milliy akademik teatrdan boshlaydi. Qator obrazlarni yaratadi. So'ngra Moskva Davlat konservatoriyasi qoshidagi o'zbek opera studiyasida ta'lim oladi. 1929-1939 yillar mobaynida o'zbek musiqali drama teatrida ijod qildi va xilma-xil obrazlarni yaratdi. 1939-yildan boshlab to kuchdan qolgunga qadar A.Navoiy nomidagi o'zbek opera va balet akademik teatrida ijod qildi va ushbu qutlug' dargohida o'z ijrochilik maktabini yaratdi. "Layli va Majnun", "Gulsara", "Karmen", "Bo'ron", "Maysaraning ishi", "Zaynab va Omon", "Xorazm qo'shig'i", "Ulug'bek" singari o'nlab operalardan bosh obrazlarni qo'shiqlarini kuyladi. Halima Nosirova o'zbek milliy ashula va qo'shiqlarini betakror ijrochisidir. Uning ijrosida "Ushshoq",